

FANLARNI O'QITISHDA INNAVATSION METODIKALAR

Yuldasheva Dildora Adhamovna

*Namangan Viloyati, To'raqo'rg'on Tumanidagi 33-Sonli Umumiy O'rta Ta'lim
Maktabining Ona Tili Va Adabiyot Fani O'qituvchisi*

Til o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishdir. Bunda nafaqat ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, balki barcha pedagoglarimiz birdek mas'uldirlar. Chunki har qanday darsni, har qanday mavzuni tushuntirayotgan pedagogning nutqi ravon, aniq, lo'nda, tushunarli va mazmunli bo'lishi kerak.

Hozirda ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda juda ko'p yangiliklar mavjud. Ular noan'anaviy dars o'tish usullari, interfaol usullar, turli texnika vositalaridir. Mana shu usullar asosida darsni qiziqarli va mazmunli tashkil qilish bilan birga o'quvchilarning saviyasini oshirish, dunyo qarashini kengaytirish va albatta, notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Har bir o'qituvchi mazmuni o'quvchi ongida uzoq vaqt saqlab qolish uchun turli ko'rgazmalardan, slayd va multimedialardan foydalanishi lozim. Bu narsalar o'quvchida darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallab olish kerak. Bunda o'qituvchi fanning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim bo'ladi.

Avvalo, biz innovatsiya tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak. An'anaviy ta'lim o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatadi. Unda o'qituvchi asosiy o'rinda bo'ladi. O'quvchi esa bu jarayonni passiv ishtirokchisi yoki tinglovchisiga aylanadi. Ilmiy-texnika rivojlanishi tufayli o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan ilmiy axborot xajmining keskin oshib ketishi bilan an'anaviy metodlar kamsamari bo'lib qoldi. Ana shuning uchun hozirgi davrda interfaol metodlar, noan'anaviy usullar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi. Innovatsion texnologiyalar inglizcha-"innovation" yangilik kiritish-pedagogik jarayon ya'ni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatida o'zgarish, yangilik kiritish, o'quv jarayonida interfaol metodlardan to'liq foydalanishni o'z ichiga oladigan vositalar esa o'quvchining birgalikda faoliyati orqali ta'lim mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan vositalarni o'z ichiga oladi. Bunday hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchining bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini muntazam oshirib borish;
- o'quvchini har qanday muammoga ijodiy yondashuviga o'rgatish;
- o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash;

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanishiga imkon yaratish.

Bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligida faoliyati, o'quvchining ijodiy ishlashi, mustaqil fikrlashi, izlanishi, tahlil qilishi va xulosalay olishi, o'quvchining o'ziga va guruhga, guruhning esa o'quvchiga baho berishiga imkon yaratilishi bilan bog'liq. Har bir darsga o'quvchilar qiziqishi mavzu mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o'ziga xos texnologiya qo'llaniladi. Darsning texnologik xaritasi oldindan loyihalashtirilgan bo'ladi. Darsning turli bosqichlarda har-xil interfaol usullardan foydalansa bo'ladi. Masalan:

1. "Zinama-zina" texnologiyasi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. O'quvchilar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o'rganadilar, o'tilgan mavzuni sub'yekt o'qitish orqali mustahkamlaydilar.

2. "Venn diagrammasi" texnologiyasi.

Ushbu texnologiya ona tili, o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlash, so'zlab berish, fikrni erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biri.

3. "Ijodiy o'yinlar" texnologiyasi.

Ijodiy o'yinlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llash, o'qish jarayonida paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlarni ijodiy izlanish orqali hal etishdan iborat. Bunday o'yinlar o'quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishlar va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, bilimlarini yanada mustahkamlash va yangi bilimlar berishga qaratilgan bo'ladi.

4. "Ishbilarmonlik o'yinlari" texnologiyasi.

Bu texnologiyada ishtirokchilarga o'yin mavzusi taklif etiladi. Mavzu bo'yicha ular oldiga taklif etilgan muammoni yechish qo'yiladi. Har bir ishtirokchi o'z roliga muvofiq keladigan chiqish tayyorlaydi va bu haqda barcha ishtirokchilar bilan maslahatlashadi. Guruhning barcha a'zolarining faoliyati umumiy maqsadga qaratilgan bo'ladi. Baholash o'quvchining faoliyati va rolining mazmuni bilan belgilanadi.

5. "Sahnalashtirilgan o'yinlar" texnologiyasi.

Muammoli vaziyatning bir turi bo'lib, hayotiy vaziyatlarni o'quvchilar tomonidan sahnalashtirishdan iborat. Ularda didaktik maqsad o'quvchilar oldiga vazifa tariqasida qo'yiladi; o'quvchining o'quv faoliyati o'yin qoidasiga bo'ysundiriladi.

6. "Didaktik o'yinli texnologiyalar".

Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Didaktik o'yin darslari ta'lim va tarbiya berish, o'quvchilar

faoliyatini yo'naltirish, kasbga yo'naltirish, muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Bulardan tashqari: "Aqliy hujum", "Klaster", "Xotira mashqi", "So'z-xazina", "Sinkveyn", "Shirin mevalar", "Bumerang", "Bingo" kabi bir necha usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda yaxshi yordam beradi. Dars va darsdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish masalalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga yangilik kiritish va yangicha yondashuvlarni joriy etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minlash hamda uni aniq reja asosida va maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishdan iborat. Bu ishda pedagogik-psixologik va tashkiliy masalalarning omixta yechimi talab eriladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Innovatsion metodlar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, ilmiy dunyo qarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishini uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini-innovatsiyalar bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish etmoqda. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvdir. Innovatsion ta'lim o'qituvchi faoliyatini yangilash, ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilish bilan birga, o'quvchi va talaba yoshlarda bilimga chanqoqlik, hur fikrlilik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakalariga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Til va adabiyot ta'limi. 2018-yil, 7-son.
2. Pedagogik texnologiyalar. (maqola) A.Jumanov katta o'qituvchi.
3. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" (darslik) Toshkent. 2012-yil
4. Ta'lim jarayonida innovatsiyalar. biznes-dailiy.uz 2018-yil.18.05